



SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDA JOYLASHGAN TARIXIY ME'MORIY OBIDALARINI TA'MIRLASH VA QAYTA TIKLASH TARIXI

Sunnatillo Quchqorov Olimjon o'g'li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti 2-kurs magistranti
sunnatilloquchqorov121@gmail.com
+998944694422

Annotasiya. Ushbu maqolada Samarqand hududida joylashgan tarixiy me'moriy obidalarini ta'mirlash va qayta tiklash borasida olib borilgan keng ko'lamli amaliy ishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Buxoro, Samarqand, Karmana, Xazora, Dehgaron masjidi, Ko'k Gumbaz masjidi, Afrosiyob shahristoni, masjidlar, madrasalar, maqbaralar, evropacha me'morsozligi, g'ishtlar.

Abstract. This article deals with the This article talks about extensive practical work on the repair and restoration of historical architectural monuments located in the territory of Samarkand.

Key words: Key words: Bukhara, Samarkand, Karmana, Hazora, Dehgaron Mosque, Blue Dome Mosque, Afrosiyab city, mosques, madrasahs, mausoleums, European architecture, bricks.

Arxiv manbalarining dalolat berishicha, XXI asr boshiga kelib O'zbekistonda davlat muhofazasiga olingan qadimgi me'morchilik yodgorliklaridan 600 dan ortig'ini masjidlar tashkil qiladi. Mutaxassislar bergan ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonning diniy va madaniy o'choqlaridan biri bo'lgan Buxoro shahrining o'zida XX asr boshida 360 ta masjid bo'lgan¹.

Mahalliy aholi musulmonlashib borgani sayin O'rta Osiyoda islom diniy binolarining ahamiyati oshib borgan – masjidlar, madrasalar, maqbaralar paydo bo'lgan, dastlabki me'moriy obidalar arablargacha bo'lgan zamonda belgilangan o'zanda rivojlangan. Biroq, VIII–X asrlarda xalifalik madaniyati rivojlanishida Shunday bosqich boshlandiki, bunda zabt etilgan mamlakatlar xalqlarining yutuqlarini o'zlashtirgan xalifalik ayni vaqtda ularga umumiy xalifalik madaniyatining jihatlarini singdira boshladi. O'zbekiston hududida joylashgan va saqlanib qolgan arxitektura yodgorliklarining aksariyati IX–XVIII asrlarda bunyod etilganligini², XIX asr o'rtalaridan evropacha me'morsozlikning rivojlana boshlaganligini hisobga olib, me'morchilik va shaharsozlikning rivojlanish jarayonini milodiy ikkinchi ming yillik oxiridan to shu kungacha bo'lgan davrini shartli ravishda bir qancha bosqichlarga (shu jumladan masjidlarni xam) ajratish mumkin:

¹ Абриев Р.Б. Тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш ишлари тарихидан//Марказий Осиё тарихи ва археологияси муаммолари” мавзусидаги Республика илмий конференция материаллари. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2018. 19-бет.

² Архитектура yodgorliklarini ta'mirlash. Toshket – 2009. 105-бет.



Birinchi bosqich IX–XII asrlarga to‘g‘ri keladi. Shu davrdan boshlab me‘moriy tafakkur o‘z rivojlanishida yana novatorlik kashfiyot va yutuqlarga tayanib Yangi pog‘anaga ko‘tariladi. Bu davr me‘moriy yodgorliklariga Karmana tumanidagi Xazora qishlog‘ida VIII asrdan boshlab paxsa va xom g‘ishtdan bunyod etilgan va hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan noyob Dehgaron masjidi alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Zarafshon vohasi me‘morchilik san‘ati rivojlanishida alohida bosqichni Temur va temuriylar davri (XIV–XV asrlar) tashkil qiladi. Ma‘lumki mo‘g‘ullar istilosi Zarafshon vohasi shahar, qishloqlari, sug‘orish inshootlari vayron bo‘lishiga olib kelgan. Vaqt o‘tishi bilan qishloq va shaharlar qayta tiklana boshlagan. Xususan, bu ishda me‘moriy-qurilish sohasi muhim o‘rin egallagan va taraqqiy eta boshlagan. Me‘moriy qurilishning yuksalishi gullash davri, yuqorida aytilganidek, Temur hamda temuriylar hukmronlik qilgan davrga to‘g‘ri keladi.

Mazkur davr me‘morchilik va shaharsozlik madaniyati jadal rivojlanishida bu sohaning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi ham xizmat qilib muhim rol o‘ynagan. Amir Temur o‘zining “Tuzuklarida” Shunday deb yozgan: «Yana amr qildimki, harob bo‘lib yotgan erlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko‘priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga Yangi ko‘priklar qursinlar, yo‘l ustida har manzilga rabotlar qursinlar... katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar qursinlar, faqiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifohona qurdirsinlar... har bir shaharda saroy va qozixona qursinlar...». Birgina Samarqand shahrida shaxsan Amir Temurning rahbarligi va tashabbusi bilan 20 dan ortiq mahobatli me‘moriy inshootlar barpo qilingan³. Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy kabi tarixchilar har bir binoning loyihalarini mukammal holatga kelishida shaxsan sohibqironning roli salmoqli bo‘lganligini qayd etishgan.

Buning natijasida temuriylar shahri arxitekturasi – davlat qudratining ifodasi qal‘a devorlarida, hukmdorlarning shijoati – saroylarda, islom mafkurasining tantanasi – islom diniy binolarida, hunarmandchilik va savdoning roli va ahamiyati tasdiqlovchi bozor inshootlarida va, nihoyat, murakkab shahar organizmining hayoti esa dahalarda zich joylashgan uy-joy va maishiy binolarda o‘z ifodasini topdi. O‘rta Osiyo shaharsozlik madaniyatining gullab-yashnashi, obodonchilik, bunyodkorlik ishlari Temuriylar davrida ham davom etdi. Ayniqsa, bu Amir Temurning nabirasi Ulug‘bek hukmronlik qilgan davrda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Eng mashhur binolar

³ Абрнев Р.Б. Тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш ишлари тарихидан//Марказий Осиё тарихи ва археологияси муаммолари” мавзусидаги Республика илмий конференция материаллари. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2018. 20-бет.



orasida – Temuriylarning Shahrisabzdagi Ko‘k Gumbaz masjidi; Samarqand shahridagi Bibixonim masjidi va boshkalar aloxida ajralib turadi.

Yana bir bosqich XVI asrdan boshlab to XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lib, asosiy me‘moriy-qurilish, bunyodkorlik ishlari Buxoro, Samarqand, Karmana, Toshkent kabi katta shaharlar miqyosida amalga oshirildi. Hukmdor saroylari, diniy va fuqarolik inshootlari, bozorlar va boshqa inshootlar yanada rivojlantirildi. Umuman, XIX asrning birinchi yarmiga qadar O‘zbekiston sarhadlarida o‘rta asrlar me‘morchiligi umumiy uslub, yo‘nalish, vazifalarga ega bo‘lganligiga qaramay, bu sohada bir qancha lokal me‘moriy maktablar – Movarounnahr, Farg‘ona va Xorazm maktablari mavjud bo‘lgan va rivojlangan. Ularning an‘analari ham avloddan avlodga o‘tib, hozirgi zamondagi xalq ustalari ijodida o‘z ifodasini topmoqda.

Keyingi bosqich XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O‘zbekiston me‘morchiligi ishlarida Evropaga xos me‘moriy uslublar qo‘llanila boshlandi. Banklar, maktablar, gimnaziyalar kabi yangi binolar qurinishida namoyon bo‘ldi. Ular asosan pishiq g‘ishtlardan qurilgan bo‘lib, g‘isht tirgovchilarga ega bo‘lib, ular binoning zilzilalarga chidamliligini ta‘minlagan. O‘z ta‘mirlash maktabi shakllangan, yodgorliklarni konservatsiya qilish, muhandislik usullari bilan mustahkamlash va ta‘mirlashning hamda atrofidagi hududni obodonlashtirishning muayyan prinsiplari va an‘analari shakllangan.

O‘zbekiston Respublikasida tarixiy shaharlarni rekonstruksiya qilish ishlari tarixiy shahar muhitini tarixiy-madaniy merosning asosiy tarkibiy qismi, uning individualligini va me‘moriy-badiiy o‘ziga xosligini ta‘minlovchi qism sifatida saqlab qolish va tiklashga qaratilgan konsepsiya ishlab chiqildi. Unga asosan:

- mazkur muhitda joylashgan ijtimoiy-madaniy hamda shaharni shakllantiruvchi salohiyatdan samarali foydalanish, tarixiy binolar joylashgan hududlarda ularning me‘moriy-hududiy kompozitsiyasi, tarixiy-badiiy qimmatini va funksional ahamiyatining bir butunligini saqlangan holda odamlarning hayot kechirishi va faoliyat ko‘rsatishi uchun qulay sharoitlar inobatga olindi;

- shaharning tarixiy qismini rekonstruksiya qilishda uning rejalashtiruvchi va makoniy tuzilmalarini tarixiy-me‘moriy tadqiqotlarga tayangan holda vorisiylik negizida rivojlantirish shaharsozlik faoliyatidagi yondashuvning asosini tashkil etdi;

- batafsil rejalashtirish loyihalarning bosh rejalarida tarixiy va madaniy merosni saqlash, rejalashtirish tuzilmasi, ularning qabul qilish zonalari, vizual o‘zaro aloqalarni, inson uchun ochiq ko‘chalar, maydonlarni hamda oddiy binolar bilan shakllantiriladigan me‘moriy muhitni va boshqalarni saqlab qolish orqali uning shaharni shakllantiruvchi rolikidan foydalanishning rejalashtirish yo‘lga qo‘yildi.



O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida joylarda tarixiy-me'moriy yodgorliklarning texnik holati, ulardan to'g'ri foydalanish, restavratsiya-konservatsiya ishlarining amalga oshirilishi ustidan nazorat qiluvchi davlat inspeksiyalari tashkil etildi va ularning faoliyati yo'lga qo'yildi. Restavratsiya ishlarining keng ko'lami O'zbekistonning deyarli barcha mintaqalarini, Shu jumladan, Qoraqalpog'istonning uzoq tumanlarini ham qamrab oldi.

1973-yil 9-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 339-sonli qarori bilan respublikamizdagi madaniy meros ob'ektlariga boy 10 shahar Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Karmana, Qo'qon, Qarshi, G'ijduvon tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritilgan va bu shaharlarning tarixiy markazlari va qo'riqxonalari xududidagi barcha yangi qurilish, qayta qurish, va boshqa ishlar Madaniyat va sport ishlari vazirligi va Fanlar Akademiyasi bilan kelishilgan holda rejalashtirish va amalga oshirish kerakligi belgilangan.

Hukumatning 1982-yil 26-maydagi 397-sonli qarori bilan Samarqand shahrining Afrosiyob shahristoni, o'rta asrlarda Amur Temur davrida bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar va XIX-XX asrlarda qurilgan «yangi shahar»dagi tarixiy binolar, tarix va o'lkashunoslik muzeylari asosida «Samarqand Davlat birlashgan tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi» tuzilgan. Shu yilda shaharning tarixiy qismini muhofazalash hududlari belgilangan.

Ana shunday tadbirlar tufayli Bibixonim me'moriy majmuasi Samarqanddagi Imom Buxoriy memorial kompleksi, Buxoroda Kalon masjidi va minorasi. Xivada Muhammad Aminxon madrasasi va masjidi Qo'qonda Jome' masjidi obidalar ta'mirlanib, sayyoxlar ziyorat qiladigan ob'ektlarga aylantirildi. Shu bilan bir qatorda tarixiy yodgorliklarni har taraflama himoya qilishning huquqiy asoslari yaratildi⁴.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash. – Toshkent, 2009.
2. Абриев Р.Б. Тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш ишлари тарихидан//Марказий Осиё тарихи ва археологияси муаммолари” мавзусидаги Республика илмий конференция материаллари. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2018.
3. Абриев Р.Ўзбекистон мустақиллиги йилларида тарихий меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш жараёнлари. Тошкент.2015.

⁴ Абриев Р.Б. Тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш ишлари тарихидан//Марказий Осиё тарихи ва археологияси муаммолари” мавзусидаги Республика илмий конференция материаллари. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2018. 21-бет.



4. Аҳмедов М.К., Рафиқов С.А. Ўзбекистонда меъморий ёдгорликларни таъмирлаш муаммолари // Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши. 2005. №1.
5. Курязова Д.Т. Ўзбекистон музейлари: моддий маданий меросини ўрганиш, сақлаш масалалари. Монография. – Тошкент: Санъат, 2018. - Б.120
6. Мухамедова М.С. Музейшунослик соҳасини ривожлантиришда миллий ва халқаро ташкилотлар фаолиятининг ўрни (XX-XXI асрлар). – Т.: “Yosh kuch press matbuoti” МЧЖ, 2017.
7. Мухамедова М. Бухоро тарихий ёдгорликларини таъмирлаш, сақлаш ва замонавий музейлаштириш муаммолари // Тошкент ислом университети илмий-таҳлилий ахбороти. 2012. №2.
8. Шоҳи Зинда» мажмуасидаги қириш биноси маданий мерос объекти кадастр иши. – Самарқанд, 2011.
9. Madayev, O., Sobirov, A., Xolmanova, Z., Toshmirzayeva, S., Ziyodullayeva, G., & Shamsiyeva, M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Va O‘Rta Maxsus Ta’lim Vazirligi.
10. Xolmanova, Z. Babür’ün Özbek Dilbilimini Geliştirmedeki Büyük Hizmetleri.

